

BANK KARTALARI VA ULARNING AFZALLIKLARI

Assistant: **Sh.Karimova**

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan tijorat banklaridagi bank kartalari va bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab bank kartalarini foydalanishdagi kamchiliklar, yutuqlar va xorij tajribasini qo'llashda qaysi jihatlari mamlakatimiz iqtisodiy muhiti uchun munosib ekanligi haqida qisqacha fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Bank kartalari, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking, kredit kartalar, online savdo.

Kirish

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda raqamli iqtisodiyot internet tarmoqlari orqali rivojlanib bormoqda. Bu jarayonda banklar to'lovni bank kartalari bilan mobil dasturlar orqali amalga oshirish tendentsiyalarini mukammallashtirb bormoqda. Bank kartasi o'zi nima? Bugungi iqtisodiyotda bank kartalarini o'rni qandayligini batafsil tushuntirib o'tamiz.

Bank kartasi – mahsulotlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz shaklda haq to'lash, pulni saqlash va olib yurish, hamda zarur hollarda esa naqd pul yechish uchun zamonaviy qulay to'lov vositasidir. Bank kartasi orqali do'konda xaridlar, hattoki internetda har qanday mahsulotlar, samolyot yoki poyezd chiptalari uchun to'lovlarni amalga oshirish mumkin.

Odatda bank kartalari tijorat banklari tomonidan chiqariladi va bu bank-emitent kartasi egasi uchun bank xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini yuklaydi.

Bank kartalari vazifasiga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

Debet bank kartasi – bankdagi joriy hisob raqamingizga ulangan bank kartasi. Bu karta mahsulotlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to'lovlari, bankomat orqali naqd pulni yechib olish va pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun ishlatish mumkin. Debet kartasiga ish haqi, pensiya, stipendiya, ijtimoiy nafaqalar, depozit bo'yicha foizlar kabi mablag'lar o'tkazilishi mumkin. Bugungi kunga kelib aynan bu turdag'i kartalar juda mashhur hisoblanadi.

Kredit bank kartasi – bu kredit shartnomada belgilangan chegara doirasida bank mablag'lari hisobidan to'lov operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi bank kartasidir.

Xalqaro kartalar – xalqaro to'lov tizimlarida qo'llaniladigan kartalar. Viza va MasterCard kabi to'lov tizimlari.

Korporativ bank kartalari – xodimlarga tashkilot manfaatlari yo'lida xaridlarni amalga oshirish va to'lov hujjalarni to'lash imkonini beruvchi bank kartasi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklari tomonidan bank kartalariga turli xil ko‘rinishdagi xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha majburiyat yuklatilgan. Masalan bank kartalarida foydalanuvchi mijoz quyidagi maqsadlarda undan foydalanishi mumkin:

1. **Hisobvaraqni boshqarish.** Karta egasi hisob raqamidan haftaning istagan kuni yoki vaqtida pul mablag‘larini yechib olishi mumkin.

2. **Xavfsizlik.** Karta naqd pulning deyarli o‘rnini egallaydi va naqd pulni katta miqdorda o‘zi bilan olib yurishga xojat qolmaydi. O‘z navbatida, pulni yo‘qotish xavfi ham kamayadi.

3. **Qulaylik.** Kartaning bu afzalligi, ayniqsa, chet elda karta egasining hayotini osonlashtiradi. Katta miqdorda valyuta olib yurishning hojati bo‘lmaydi, chunki barcha xarajatlarni karta bilan to‘lash mumkin. Bundan tashqari, bankomatlar yordamida hisobingizdan naqd pulni yechib olish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Bugungi kunda 200 dan ortiq mamlakat to‘lov operatsiyalarida bank kartalaridan foydalanmoqda.

4. **Internet orqali xizmatlar uchun to‘lovlar/xaridlar.** Internet orqali biznes jadal rivojlanmoqda. Har yili onlayn-do‘konlar soni ko‘paymoqda hamda bank kartalarini to‘lov sifatida qabul qiluvchi boshqa xizmat turlari soni oshmoqda.

Markaziy bank 2022-yil 1 yanvar holatiga bank kartalarining statistikasini o‘z saytida keltirib o‘tgan. Quyidagi rasmda yillar kesimida bank kartalari soni keltirilgan:




1-rasm. Muomaladagi bank kartalari soni

1-rasmda keltirilgan ma'lumotga ko'ra 2022-yil 1 yanvar holatiga ko'ra muomaladagi bank kartalari soni 27106 mingtaga yetgan. Bu degani aholining 80 foiz qatlami bank kartalariga ega. Dastlabki 2001-yildagi ko'rsatkichlarga nazar solsak sanoqli odamlarda bank kartalari muomalada bo'lgan. Kartaning oldi tarafida egasining nomi, kartaning raqami, amal qilish muddati, kartani bergen bank nomi va to'lov tizimining logotipi ko'rsatilgan. Teskari tomonida esa karta egasining imzosi va magnit tasmasi mavjud. Ushbu tasma karta haqidagi elektron ma'lumotlarni saqlaydi. So'nggi yillarda kartaga o'rnatilgan chip ma'lumot tashuvchi sifatida keng ishlatilmoqda. Agar Siz kartani yo'qotsangiz uning amal qilish muddatini to'xtatish uchun darhol kartani bergen bankka murojaat qilishingiz kerak. Shunda, yo'qotilgan karta orqali amalga oshiriladigan har qanday operatsiyalar bloklanadi va hech kim pulingizni ishlata olmaydi. Bir necha kun ichida bank kartani qayta chiqarib beradi. Karta orqali o'tkazilgan operatsiyalarni kuzatish uchun SMS-xabarnoma funksiyasini yoqish tavsiya etiladi. Bank kartangizga mablag'lar kelib tushganda yoki ularni sarflaganingizda bankingizdan SMS keladi. Agar Siz bajarmagan chiqim operatsiyalarini ko'rsangiz, kartani tezda bloklasseshingiz mumkin.

Bank kartalari soni yuqorida 1-rasmda tahlil qilgan edik. bankomatlar soni ham bank kartalaridan foydalanish uchun asosiy omil hisoblanadi. Bank kartalari 2022-yil 1-yanvar holatiga quyidagi 2-rasmda berilgan:

Ўрнатилган тўлов терминаллари сони
1 январь ҳолатига



2-Rasm. To'lov terminallari soni

Bank kartalari orqali barcha to'lovlarni uyda o'tirgan holda navbatlarsiz amalga oshirish mumkin. Mamlakatimizda bank kartalari infratuzilmasi 2020 yil 1 yanvar holatiga 20 547 ming dona bank kartalari, 392 361 ta to'lov terminallari hamda 9 203 ta bankomat va infokiosklardan tashkil topgan. 2019 yil davomida ikkita milliy chakana ("Humo" hamda "Uzcard") to'lov tizimlarining Visa, Mastercard, China Union Pay hamda Mir xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyasi samarali amalga oshirildi. Bu esa, ushbu xalqaro to'lov tizimlari kartalari foydalanuvchilari, ya'ni mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlar, mehmonlar uchun keng shart-sharoitlar yaratgan holda "Humo" hamda "Uzcard" to'lov infratuzilmasi (bankomatlar va to'lov terminallari tarmog'i) orqali milliy valyutada to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Ikramova N.R. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari: xorij tajribasi va rivojlanish istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2014 yil, 1-bet.;
2. Трофимов Д. В. Конкурентоспособность розничных банков [Електронній ресурс] / Д. В. Трофимов// Управление экономическими системами. – 2013. – №58. – Режим доступа: <http://uecs.ru/finansi-i-kredit>;
3. Никоноров В. В. Развитие розничных услуг коммерческих банков как основа повышения их конкурентоспособности [Текст]: автореф. канд. экон. наук: 08.00.10. - Волгоград: 2008, с. 6.;
4. Бекчанов М., Абдурахманов Р. Пластик карта-замонавий ҳисоб-китоб воситаси. // Бозор, Пул ва Кредит. №9. 2012. Б.14.;
5. Омонов А.А. Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бoshqarish масалалари. 08.00.07 – «Молиуа, пул муомаласи ва кредит» иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим етилган диссертация автореферати. Toshkent, 2008, 24-25-бет.;
6. Ализориев О. Тижорат банкларида молиуавий хизмат турларини ривожлантириш йо'налишлари. иqt. фан. ном. ... дис. автореф. – Toshkent, 2011. - 28 б.
7. Гончарук С. А. Институционалніе аспекті развитиуа сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. унт им. К.Л. Хетагурова - Shaxti, 2018. - 183 с